

O'zbekiston
Metama'lumot
Yo'l-transport hodisalari soni

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o'rgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan yangi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo'mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan talab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentyabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig'iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT) doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

2019 yilning aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4273-sonli qarori tasdiqlandi, ushbu qaror bilan Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati tarkibida O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalidagi ro'yxatni shakllantirish, yuritish va yangilash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq ishlar uchun mas'ul bo'linma tashkil etildi.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko'maklashishi shart bo'lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlari hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o'zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o'tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma'lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so'roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig'ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig'ilishlarda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo'yicha axborotlari eshinishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma'lumotlari maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta'minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentyabrda 690-son “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom”ga asosan, Davlat statistika qo'mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo'yicha xavfsizlik choralarini ko'radi, shu jumladan bank sirlarini ham. Shu bilan birga, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 5-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini ta‘minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma‘lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o‘z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni so‘rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma‘lumotlarining ishonchligini tekshiradi, olingan statistik ma‘lumotlarni to‘liqligi ob‘ektivligini ekspertizadan o‘tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to‘g‘rilash uchun zarur ko‘rsatmalar beradi va statistika ma‘lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

“Yo‘l-transport hodisalari soni” ko‘rsatkichini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 2 nafar xodim, hududiy statistika organlarida 1 nafardan xodimlar shug‘ullanishadi. Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni shakllantirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni etarli.

Barcha xodimlar oliy ma‘lumotga ega va 2 yilda kamida 1 marta Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari institutida o‘quv kurslarida malaka oshirishadi.

Har bir ish joyi lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta‘minlangan.

Dasturiy ta‘minot bevosita Davlat statistika qo‘mitasida ishlab chiqiladi, bu zarurat tug‘ilganda mavjud va yuzaga keladigan vazifalarga muvofiq uni yangilash va o‘zgartirish imkonini beradi.

Taqdim etilgan moliyaviy resurslar Davlat statistika ishlari dasturida xizmatlar sohasi statistikasi bo‘yicha nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun etarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg‘arazlikdir. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomi”da (13-modda) Davlat statistika qo‘mitasining prinsiplari beg‘arazlikni ta‘minlashi

belgilangan.

1.1. Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma'lumotlari faqat jamlanma statistika ko'rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo'lgan statistika ma'lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarini noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarini noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistika qonun va qarorlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonun (2002 yil) va Qo'mitaning 368-sonli qarori veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.Lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlarini e'lon qilinish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarini tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarini belgilash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rnatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

“Yo'l-transport hodisalari soni” ko'rsatkichi transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar etishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar etkazilishiga sabab bo'lgan hodisalar soni bilan ifodalanadi.

2.2 Statistika qamrov

2.2.1 Statistika qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'rsatkich Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan avtotransport vositalarida sodir etilgan yo'l-transport hodisalari to'g'risidagi idoraviy statistik hisobot ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Istisnolar yo'q

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Hisobga olinmagan faoliyat yo'q

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Sabablari, og'irligi, yoshi bo'yicha taqsimlanadi.
Hisobning asosiy o'lchovi - institutsional birlikdir.

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Korxonalarining statistik kuzatuvlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning

yagona davlat registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq tizimli va doimiy yangilab boriladigan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri asos bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar idoraviy hisobot asosida shakllantiriladi. Ma'lumotlar manbai Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan avtotransportda sodir etilgan yo'l-transport hodisalari to'g'risidagi idoraviy statistik hisoboti.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

“Yo'l-transport hodisalari soni” ko'rsatkichi transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar etishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar etkazilishiga sabab bo'lgan hodisalar soni bilan ifodalanadi.

Ko'rsatkichning statistik qamrovi:

- har chorakda idoraviy statistik hisobot asosida.

Ma'lumotlarni nashr qilish muddati:

har chorakda – hisobot davridan keyin 25 ish kuni.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi bilan tartibga solinadi.

Chiquvchi ma'lumotlar har chorakda 25 sanada tayyorlanadi.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Olingan ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasida tahlil qilinadi va majburiy nazoratdan o'tkaziladi. Agar xatolar aniqlansa, ma'lumotlar respondentlar bilan birgalikda yana ko'rsatkichga aniqlik kiritiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ko'rsatkichni hisoblash uchun ma'lumotlar bazaviy va joriy davrlar uchun taqqoslanadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Avval nashr qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda keyingi nashrlarda o'zgartirish kiritiladi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ko'rsatkichlar yillik hisobotga muvofiq aniqlashtiriladi

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

"Yo'l-transport hodisalari soni" ko'rsatkichini shakllantirish har chorakda amalga oshiriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Ko'rsatkich har chorakdan keyingi oyning 25-kunda e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Ko'rsatkich "Transport va aloqa", "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" kabi statistik to'plamlarda solishtirilgan.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

2010 yildan vaqt qatorlari ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining veb-sahifasida taqdim etilgan. (<http://stat.uz/ru>)

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Yakuniy ma'lumotlar tarqatiladi

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Ko'rsatkichlar yili yakuni bo'yicha tarqatiladi.
Statistik nashrlarda ma'lumotlar jadvallar va grafikalar ko'rinishida taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

"Transport va aloqa", "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli".

5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

“O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati”

5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovi bo'yicha jadallar

5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovi bo'yicha jadallar

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to'g'risida”gi qonuni, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida”gi Nizom, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etish Reglamenti va boshqa huquqiy hujjatlarga asosan statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaati

bo'yicha chop etilgan yoki elektron jadvallar ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor-axborot hamda tomonlarning o'zaro axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuviga asosan ma'lumot taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

Davlat statistika instrumentariylarini (shakllari va so'rovnomalari) takomillashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejaları – Qisqa muddatlilari

9.2.2 Takomillashtirish rejaları – O'rta muddatlilari

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejaları – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlanadi.

9.3.2 Takomillashtirish rejaları - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlanadi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs 1	
F.I.O.:	Umarov Akmal Rustamovich
Lavozim:	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma:	
Bo'lim:	
Departament:	
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil (1 satr):	Mustaqillik shox ko'chasi, 63
Manzil (2 satr):	
Shahar/region:	Toshkent
Mamlakat:	O'zbekiston
Pochta indeksi:	100192
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2308059
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	a.umarov@stat.uz
Aloqa bog'lash uchun shaxs 2	
F.I.O.:	Mirzaxid Abdugafur Yuldashevich ov
Lavozim:	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari - bo`lim boshlig'i
Bo'linma:	
Bo'lim:	Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlari indikatorlari va yig`ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo`limi
Departament:	
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil (1 satr):	Mustaqillik shox ko'chasi, 63
Manzil (2 satr):	
Shahar/region:	Toshkent
Mamlakat:	O'zbekiston
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	998 71 2308061
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	a.mirzaxidov@stat.uz